

IMPROVING FINANCIAL SUPPORT OF INNOVATION ACTIVITIES

Abstract. This article emphasizes that, as is known from national and international experience, the level of development of the economy and society largely depends on innovation activity, and therefore, today innovations have become an important component of the economy of every country. Also, proposals and recommendations are given on the possibility of achieving rapid development of entrepreneurship through the widespread use of innovations in the modern world.

Keywords. Innovation processes, economic development, innovation financing, development of product competitiveness, and innovation management.

*Студентка Ташкентского государственного экономического
университета*

Курбанова Азиза Бегмамат кизи

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье подчеркивается, что, как известно из национального и мирового опыта, уровень развития экономики и общества во многом зависит от инновационной деятельности, в связи с чем, сегодня инновации стали важной составляющей экономики каждой страны. Также даются предложения и рекомендации по возможности достижения быстрого развития предпринимательства за счет широкого использования инноваций в современных условиях.

Ключевые слова: Инновационные процессы, экономическое развитие, финансирование инноваций, развитие конкурентоспособности продукции, инновационный менеджмент.

INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'ligi va shu boisdan, bugungi kunda innovatsiyalar har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanganligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda innovatsiyalardan keng foydalanish orqali tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga erishish mumkinligi haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion jarayonlar, iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion moliyalashtirish, mahsulot raqobatdoshligini rivojlantirish, innovatsion menejment.

Innovatsiya – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or ilm-fan yutuqlarini joriy etish yo'li bilan yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirish. Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda bu nom ekzotik, noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan narsani eslatardi, ammo endi innovatsiyaning o'zi ham, uning tushunchalari ham dunyoni tezda zabt etmoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar yordam bermoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga ko'pincha odamlarning bevosita salbiy munosabati va pozitsiyasi to'sqinlik qiladi. Biroq, O'zbekistonda paradoksal vaziyat rivojlanmoqda, ya'ni butun jamiyat innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabat va qo'llab-quvvatlashni bildiriyapti.

Xususan, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan qonun loyihalarida o'z aksini topgan. Innovatsion faoliyat to'g'risida 2020-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va

texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi prezident farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son, "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonun kabi myoriy hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo'lgan normativ-huquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat.

Jahon gloaballashuvi jarayonida kuchli raqobat har sohada yangilikka undaydi. Fandagi texnika-texnologiya sohalaridagi eng so'nggi yutuqlar, kashfiyotlar, yangiliklar, ratsionalizatorlik takliflarni ishlab chiqish va xizmat ko'rsatish sohalariga shiddat bilan kiritilib boriladi va marketing, boshqaruv, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi yondashuv, yangi texnologiya, texnikalarni qo'llashni talab qiladi va texnologiyalarni yangi avlodini qo'llash asosida mablag' kiritilishi investitsiyadan dalolat beradi. Yangilik kiritilishi asosida mavjud texnika va texnologiyalarni almashtirilishi ham investitsiyani anglatishi mumkin. Fan va texnika taraqqiyoti natijalari asosida yangi texnika, texnologiyalarni qo'lga kiritilishi ham investitsiya ma'nosida ishlanadi. Investitsiyani aniqlovchi omil bo'lib yangilik yaratilishi, ratsionalizatorlik takliflar yirik tashkilotlar va shunga tegishli ilgari e'lon qilinmagan yirik ishlanmalar xizmat qiladi. Kichik raqobat muhitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida investitsiya ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyani qo'llash asosida tashkil etishni, xizmat ko'rsatish sohasida yangi, avval qo'llanilmagan xizmat turlarini nazarda tutadi. Innovatsiya tushunchasi yangi maxsus turlarni mavjud ishlab chiqariladigan mahsulotni almashtiruvchi, uning o'rnini bosuvchi yangi mahsulotni ishlab chiqarishni ham anglatadi. Kuchli raqobat muhitida yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash asosida yangi mahsulotni, yangi bozorga olib chiqishni ham bildiradi. Investitsiya kashfiyotlar asosida fan va texnika sohasida yangi bilimlarni qo'llashga kiritilishini, yangi ilg'or texnika va texnologiyalarni yaratilishini, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llanilishini,

ular asosida yangi tovar va xizmatlarni yaratilishini va ular hisobiga raqobatni kuchaytirishni, yangi bozorni egallashni ham anglatadi. Innovatsiya an'anaviy va yangi ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoq sohalarida iqtisodiy o'sishni va raqobatbardoshlikni doimiy ravishda ta'minlovchi zaruriy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsiya kabi hodisani o'rganish jarayonida ikki olim, ya'ni N.Kondratiev va avstriyalik J.A.Shumpeterning nomlarini unutmaslik kerak. Aynan Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" tadqiqotida innovatsiya tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergan.¹ U innovatsiyani tijorat muammolarini hal qilishga qaratilgan mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy birikmasi sifatida talqin qildi. Shumpeter bevosita innovatsiyalarda iqtisodiy tizimlarning rivojlanish manbasini payqadi. Chunki o'ziga xos kontent innovatsiyasi - bu o'zgarishlar, ular beshta tipik o'zgarishlarga e'tibor berib, ta'kidlagan:

1. Yangi texnologiyalar, yangi texnologik jarayonlar yoki yangi ishlab chiqarish bozorlarini ta'minlash;
2. Yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
3. Yangi xom-ashyolardan foydalanish;
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlar;
5. Yangi bozorlarning paydo bo'lishi.

Bundan tashqari, u innovatsiya tushunchasidan foydalanib, uni o'zgarishlar sifatida izohladi, uning maqsadi iste'mol tovarlarining yangi turlarini, yangi ishlab chiqarishni va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidagi transport vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishdir. Innovatsiyalarni tavsiflashda Shumpeter bu jarayonda tadbirkorning rolini doimo ta'kidlab kelgan, chunki aynan tadbirkor harakatlantiruvchi kuch bo'lib, yangi ixtirolarni amaliyotga tatbiq etuvchi va mukofot sifatida foydani oluvchi hisoblanadi. Shu tavsiflar isboti tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuniga binoan innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar uchun zarur huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish, innovatsion loyihalar hamda yangi ishlanmalarni moliyalashtirish maqsadida amalga oshiriladi.²

Innovatsion jarayonlar boshqaruv ob'yekti sifatida noaniqligi, ko'p variantlilik bilan tavsiflanadi va o'z mohiyatiga ko'ra ehtimollik hisoblanadi. Uni boshqarish jarayonida turli yangiliklarning o'zaro bog'liqligini aniqlashgina emas, balki innovatsion tizimlar uzluksiz evolyusiyasini qo'llab-quvvatlash zarur.

¹ Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.

² <http://www.lex.uz> - O'zb.Res.Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 24.07.

Shuning uchun innovatsion faoliyat ta'siri ostida iqtisodiyotning tuzilmaviy o'zgarishlari ham innovatsion menejment tizimiga jalb etiladi.

“Moliya” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida eng umumiy tarzda “pul mablag‘lari” ma’nosini anglatadi. Arab tilidagi “mol”, ya’ni “boylik, mulk; pul jamg‘armasi”, shuningdek, “moliyat”, ya’ni “pul mablag‘lari, soliq” so‘zlari ham moliyaga daxldordir. O‘zining lug‘aviy ma’nosi jihatidan “moliya” so‘zi fransuzcha “finance”, lotincha “financia” va ruscha “финансы” so‘zlarining ekvivalenti yoki ma’lum ma’noda, sinonimi hisoblanib, eng avvalo, “daromad”, “pul mablag‘lari” yoki “to‘lov” degan ma’nolarda ham ishlatiladi.³

Moliya davlatning vujudga kelishi va uning resurslarga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishi bilan doimiy tovar-pul munosabatlari sharoitida paydo bo‘lgan. Davlatning mavjudligi yaratilayotgan iqtisodiy ne’matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bo‘yicha oliy hokimiyat organi sifatida davlat va takror ishlab chiqarish munosabatlarining boshqa ishtirokchilari, sub’yektlari o‘rtasida ma’lum bir munosabatlarning o‘rnatilishini taqozo etadi. Xususan, ana shu munosabatlar “moliya” tushunchasi orqali ifodalangan.

Zamonaviy tasavvurdagi “moliya” tushunchasini davlat xazinasining alohidalashuvi va davlat byudjetining vujudga kelishi bosqichiga kiritish mumkin. Moliya—eng avvalo, taqsimlash kategoriyasidir. Uning yordamida milliy daromadning ikkilamchi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Moliyalashtirish shakllari, manbalari va mexanizmlarining turli-tumanligi, o‘zgarib turishi, haqiqiy ehtiyoj, talab va taklif, moliyaviy tahlil, investitsion quyilmalar, iqtisodiy baholashning ko‘p sonli metodlari innovatsion moliyalashtirishga olib keladi. Biroq ularning har biri, o‘z navbatida, afzalliklar va kamchiliklarga ham ega bo‘lishi mumkin. Xalqaro miqyosdagi tahlillarga tayanilgan holda ta’kidlash joizki, mamlakatlarning inqirozdan chiqish vazifalarini hal etish va iqtisodiy rivojlanishning dinamik barqarorligini ta’minlashda birinchi navbatda innovatsiya, innovatsion faoliyat va innovatsion moliyalashtirish asosiy rol o‘ynaydi. Chunki innovatsiya, innovatsion faoliyat va innovatsion moliyalashtirishgina ishlab chiqarish bazasini texnik va texnologik jihatdan to‘xtovsiz yangilash, zamonaviy texnologiyali korxonalarni tashkil etish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, jahon tovar va xizmatlar bozoriga samarali kirib borish, umuman, iqtisodiyotni yuksaltirishga erishish omili hisoblanadi. Shu boisdan mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, taraqqiyotning garovi hisoblangan innovatsiya, innovatsion faoliyat va innovatsion moliyalashtirishni shakllantirish va rivojlantirishga muhim e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, innovatsiya, innovatsion faoliyat va innovatsion moliyalashtirish uchun zarur huquqiy va nazariy asoslarni hamda shart-sharoitlarni yaratish, davlat tashkilotlari va ishlab chiqaruvchilar bilan novator olimlar o‘rtasida samarador hamkorlik ta’minlanmoqda.

³ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. / Darslik. –T., 2010. -5-b.

Milliy iqtisodiyot va mahsulot raqobatbardoshligini rivojlantirish, aholi turmush sifatini oshirish va iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlaydigan innovatsion moliyalashtirish yo'llarini yaratish bo'yicha davlat resurslarini mujassamlashtirish, innovatsion moliyalashtirish sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, innovatsion moliyalashtirishning ehtiyojlari va natijalari to'g'risidagi axborotga ega bo'lish va uni ommalashtirish erkinligini ta'minlash (davlat, xizmatga oid yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlar bundan mustasno), innovatsion moliyalashtirish sohasini davlat tomonidan qo'llabquvvatlash, qulay kredit, soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, mazkur faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni faollashtirishga ko'maklashishdan iborat yo'nalishlar ishlab chiqish dolzarb, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, Jahon tajribasidan ma'lumki, innovatsion moliyalashtirish uchun moliyaviy, bozor, texnik, baho kabi xatarlar xos xususiyat hisoblanadi. Sohada rivojlanish har qanday mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish omilidir. Xalqaro tajribani o'rganish asosida innovatsion moliyalashtirish tavakkalchilik darajasi yuqori, oldindan daromad yoki ziyon ko'rilishi aniq, ma'lum bo'lmagan manbalar qatoriga kiritilgan.

Foydalanilagan adabiyotlar.

1. Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.
2. <http://www.lex.uz> - O'zb.Res.Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 24.07.
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. / Darslik. –T., 2010. -5-b.
4. <http://www.investopedia.com>